

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI



**INNOVATSIYA, TA'LIM SIFATI VA
RIVOJLANISH**

**РАЗВИТИЕ КАК ИННОВАЦИЯ В
ОБРАЗОВАНИИ**

**DEVELOPMENT AS INNOVATION IN
EDUCATION**

TOSHKENT – 2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI

**INNOVATSIYA, TA’LIM SIFATI VA
RIVOJLANISH**

**РАЗВИТИЕ КАК ИННОВАЦИЯ В
ОБРАЗОВАНИИ**

**DEVELOPMENT AS INNOVATION IN
EDUCATION**

**Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari
2024-yil 4 may**

TOSHKENT – 2024

**“Innovatsiya, ta'lim sifati va rivojlanish” mavzusidagi Respublika
ilmiy-amaliy konferensiyasining ilmiy maqola va tezislari to'plami
t.: UzDJTU -2024 yil 4 may.**

Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallaridan iborat mazkur to'plamga mutaxassislikka yo'naltirilgan chet tili ta'limining dolzarb mummolari, chet tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, fanda yaratilgan innovatsiyalar, tajriba va yutuq, tilshunoslikning dolzarb masalalari, mutaxassislik fanlarini o'qitishda xorijiy til va tarjimaning o'rni masalalariga oid maqolalar kiritilgan. Konferentsiya materiallarida soha olimlari: filologlar, adabiyotshunos va tilshunoslar, tarjimashunoslar bilan bir qatorda, shu jabhalarda ilmiy izlanishlarini olib borayotgan tadqiqotchilar, magistrantlar hamda bakalavriat bosqichi talabalarining tadqiqot natijalariga bag'ishlangan maqolalar o'rin olgan.

To'plam filologiya sohasi va nofilologik yo'nalishlarda chet tili o'qitishga qiziquvchi keng kitobxonlar va tadqiqotchilar ommasiga mo'ljallangan.

MAS'UL MUHARRIRLAR:

Hamidullo Hakimov - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Pathiddin NISHANOV -O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Gulsanam RAXIMOVA-O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri, filologiya fanlari boyicha falsafa doktori, dotsent.

Jamoliddin YAKUBOV - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Dilrabo BAXRANOVA-O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Yusuf ISMAILOV - O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

TAHRIRIYAT HAYATI:

T. OLTIEV-O'zDJTU Ispan tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri, fil.fan.nom., dotsent.

Z. DAVRONOVA-O'zDJTU Fransuz tili amaliy fanlar kafedrasini mudiri, katta o'qituvchi.

I. ZIYADULLAEV - O'zDJTU Nemis tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri.

To'plam O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german fakultetining 2024 yil mart oyidagi № 8 sonli majlisi bayonnomasi qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

To'plamga kiritilgan maqolalar va tezislar mazmuni hamda sifatiga mualliflar mas'uldir.

15.	Камолова Санобар Жабборовна. УзГУМЯ	Когнитивная особенность категории обращения в современном французском языке	72
16.	Ikromova Lola Boltayevna BuxDU	O'zbek xalq maqollarining yaratilish bosqichlari	75
17.	Elmurodov Shohrux Alijon o'g'li SamDCHTI	Fransuz tili frazeologiyasi sohasida ifloslantiruvchi birliklarning qo'llanilishi xususiyatlari	80
18.	Davletova Dildora Nadir qizi UrDU	Exploring the fantastic genre in children's literature	83
19.	Davletov Kamaraddin Kurbonboyevch, UrDU	Qo'rquv hissiyotini o'rganishdagi turlicha yondashuvlar	87
20.	Dana Kamilla Anvarovna Yusupova Hilola Sadullayevana Raxmatullayeva Dilshada Maratovna TDSHU	Xitoy tili fonetikasini o'qitishning asosiy masalalari	93
21.	Jalilov Baxtiyor Tulanovich ADCHTI	Ingliz tildagi pretsedent nomlarini o'zbek tiliga tarjima qilishidagi o'ziga xoslilik	98
22.	Xushvaqova Ra'no Zafar qizi O'zDJTU	Chet tillarini o'qitishning amaliy, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari	101
23.	H.Хайдарханова Тахиржанова Шахиста Кабиловна УзГУМЯ	Инновационные подходы и вопросы применения информационных технологий в обучении иностранным языкам	106
24.	Shamuratova Gulhayo Shavkat qizi O'zDJTU	Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida horijiy tillarini o'rgatish va og'zaki nutq faoliyatini rivojlantirish usullari	112
25.	Gulandom Qo'yliyeva Azamat qizi O'zDJTU	Fransuz tilida zamonlarni sodda tushuntirish usullariga doir	115
26.	Matlabxonova Shahzoda Matlabxon qizi O'zDJTU	Pedagogik ta'lim: xalqaro tajriba va innovatsion yondashuvlar hamda axborot texnologiyalarini qo'llash masalalari	117
27.	SH.Ismoilova D.Otamuradova O'zDJTU	Les particularités de l'emploi des metonymies dans la langue française	120
28.	Ш. Исмаилова Ф. Бадалов УзГУМЯ	Языки объединяют мир и нации	123
29.	Азамжоновна Сарвиноз Шухратовна Давронова Зульфия Бобоевна	Выразительные возможности сравнений в сказках шарля перро	126

обращения можно дать характеристику собеседнику, приписать ему некоторые свойства. Существуют три группы обращений, специализирующиеся на выполнении преимущественно той или иной функции. Четких границ между ними нет, и отнесение обращения к одной из них во многом зависит от экстралингвистической ситуации.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. - М. 1956. С. 404-408.
2. Руднев А.Г. Синтаксис современного русского языка. - М. 1968. С. 177-178.
3. Торсуев Г.П. Фонетика английского языка. - М. 1956. С. 242.

O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING YARATILISH BOSQICHLARI

Ikromova Lola Boltayevna
BuxDU, Fransuz filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi
l.b.ikromova@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada, o'zbek xalq maqollarning yaratilishi, kelib chiqishi va tarixini yoritish. Maqollarning shakli, turi qanday sharoitda paydo bo'lishini ochib beriladi. Bunday maqollar orqali sharq xalaqlarining ma'naviy-ma'rifatini oshirish, milliy identifikatsiyani saqlash va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda ahamiyatga ega hisoblanadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается создание, происхождение и история узбекских народных пословиц. Выявлено, при каких условиях появляются форма и тип пословиц. Посредством таких пословиц важно повышать духовное просвещение народов Востока, сохранять национальную самобытность и развивать общественные отношения.

Abstract. This article covers the creation, origin and history of Uzbek folk proverbs. It is revealed under what conditions the form and type of proverbs appear. Through such proverbs, it is important to increase the spiritual enlightenment of the peoples of the East, preserve national identity and develop social relations.

Kalit so'z : Maqollar, qadriyatlar, ijtimoiy odoblar, qissalar, hikoyalar, tarixiy nazariyalar.

Ключевая слова: Пословицы, ценности, социальный этикет, рассказы, исторические теории.

Keywords: Proverbs, values, social etiquette, short stories, historical theories.

Maqollar xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblanadi. Maqollar shakliga ko'ra ixcham, ammo chuqur mazunga ega bo'lgan janrlardan biridir (1;511). Bu maqollarning yaratilishi odatda boshqa odamlar orasida tarqalgan so'zlar va qissalar yoki o'zaro o'gitlar asosida bo'lgan. Ularning asosiy maqsadi: aholini o'rganish, er-xotin munosabatlarini tuzatib borish, xalqaro qoidalardan kelib chiqqan masalalarni muhokama qilish va insoniy tiklanishga oid qadriyatlarni mustahkamlashdir.

O'zbek xalq maqollari odatda o'zbek tilida ifodalangan bo'lib, ma'naviy me'rosi, adabiyotining qadriyatlarini yoritadi va o'zbek adabiyotining asosiy qismiga kiradi. Ular tarixiy, milliy, ijtimoiy va madaniy aspektlarni o'z ichiga olganligi uchun ham, o'zbek xalqining ma'naviy-ma'rifatni oshirish, milliy identifikatsiyani saqlash va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda ahamiyatga ega bo'lgan.

Maqollarning yaratilishi odatda iboralar, qissalar, hikoyalar va o'zaro o'gitlarga asoslanadi. Ularning asosiy qismi o'rta asrlardan beri shakllanib kelgan. Tarqalgan so'zlar, hikoyalar va hikoyalar oralig'ida tarqalgan maqollar o'zbek xalqining xayotiy tajribalarini, ogitlarini va qadimiy etnik munosabatlarni ifodalaydi. Shunday qilib, o'zbek xalq maqollarini to'plash va o'rganishdagi shubhasiz katta yutuq ularning ilmiy-akademik nashrini tayyorlash bo'ldi. 1987—1988-yillarda ikki jildda nashr etilgan bu to'plam o'n uch mingga yaqin xalq maqolini o'z ichiga oladi(2;2).

Maqollar odatda o'zbek xalqining o'zining fikr va hissiyotini yoritadi. Ularda tarixiy, milliy, madaniy va ijtimoiy mazmunlar, adabiy va insoniy qadriyatlar, odamlarning hayotga doir qoidalari va o'zaro munosabatlarga oid fikrlar ifodalangan. Bu maqollar o'zbek xalqining o'zining tarixiy va madaniy yurtimizdagi ahamiyatli voqealigini, jamiyatni birlashtiruvchi qadriyatlarini va o'zaro hurmatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyat va adabiyotning asosiy manbai sifatida hisoblanadi. Milliy adabiyotning asosiy qismidir va shar xalqlari o'rtasidagi sadoqat, halollik, adolat, mehribonlik va boshqalar qadriyatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ularning tarixiy yordamida o'zbek xalqi o'zining milliy va madaniy kimligini saqlab qolgan va o'zaro munosabatlarni mustahkamlagan.

Yurtimiz mustaqillikka erishuvi tufayli ko'p narsalar ijobiy qutbga o'zgardi. Jumladan, diniy qadriyatlar to'laligicha tiklandi. Maqollarning ham qo'llanishida turfaliklar yuzaga keldi (2;4). Xalq maqollari, zamonaviy va tarixiy jahon nazariyalarini, xalqaro hamkorlik, odamlar orasidagi munosabatlar va insoniy qadriyatlar bilan bog'liq o'zgaruvchilarini ifodalaydi. Ularda erkaklar, ayollar, bolalar, do'stlar, oilalar va jamoat a'zolarining hayotidagi muammolar, xalqaro muloqotlar, adolat, mehribonlik, odamlarning erkinligi va insoniy tiklanishga oid

qadriyatlar ko'rsatiladi. Xalq maqollari odatda mazkur mavzularni o'z ichiga olgan hikoyalar, iboralar, tarbiya va o'g'itlar oralig'ida ifodalangan. Ularning qo'llanilishi aholining o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, adabiyotni tarqatish, milliy va madaniyatni saqlash, xalqaro munosabatlar va insoniy tiklanishga oid qadriyatlarini o'rgatishga yo'naltirilgan.

Maqollarning aniq yaratilish sanasi va mualliflari haqida asosan ma'lumotlar bo'lmaydi. Ularning ko'p qismi o'tgan asrlarda, o'rta Osiyo xalqlari orasida yaratilgan. Shuningdek, ularda o'zbek xalqining turli xususiyatlari, milliy va madaniy qadriyatlar, ijtimoiy jihatlar shuningdek, vijdoniylik, insoniylik, halollik ta'lim va tarbiyaga oid qonun qoidalarni yoritishga asoslangan.

O'zbek xalqining maqollari yaratilish bosqichlari odatda quyidagicha:

1. Hayotiy voqea: ko'plab maqollar o'zbek xalqining hayotiy voqea, so'zlashishlar, tavsiyalar, qo'shiqlar va atrof-muhit haqidagi tajribalardan chiqqan. Bu voqea va tajribalar o'zbek xalqining amaliyoti va odatlari bilan bog'liq bo'lgan.

2. Tabiat va atrof-muhit: o'zbek xalqining tabiati, cho'llari, daryolari, tog'lari, hayvonlar va boshqa tabiiy obyektlar bilan bog'liq maqollar ham juda ko'p. Bu maqollar tabiatning kuch qudrati va uning insonga qanchalar mehribonligini bilidrish uchun ham, o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

3. Hikmat va dunyoqarash: o'zbek xalqining maqollari o'z ichiga hikmatli so'zlar, o'lim bilan bo'g'liq voqea hodisalarni, hayot, dunyo va ish tashvishlarni o'z ichiga olgan. Bu maqollar o'zbek xalqining kuch g'ayrati, sabri-bardoshi, adolatligi, odob-axloqini ifodalaydi. Ularda yashirin mantiqiy ilm mavjud.

Oilaviy munosabatlar: maqollar o'zbek oilaviy munosabatlarini, oila a'zolari orasidagi ijtimoiy qadriyatni, farzandlar bilan munosabatlarini ifodalaydi. Aslini olganda, xalq dostonlari, ertaklari, qo'shiqlari, maqollari va boshqa o'nlab janrdagi asarlar yosh avlodning ma'naviyatini boyitish, uni haqiqiy inson darajasiga yetishini ta'minlash maqsadini nazarda tutgan holda yaratilgan (4;17-bet).

5. Do'stlik va hurmat: bilamizki o'zbek xalqi mehribon, hurmatli va do'stlik va qardoshlikni qadrlaydigan. Shunday ekan, bunday qadriyatlar bizgacha maqollar, hikmatli so'zlar va adabiy me'rosimiz orqali yetib kelmoqda.

6. Kattalar va yoshlar orasidagi munosabatlar: xalq og'zaki ijodida o'rta osiyo xalqlari uchun yaratilgan bo'lib, maqollardagi voqea hodisalar ham shu xalqni oy-xayollariga mos keladi. Maqollarning ko'pchiligida kattalar va yoshlar orasidagi munosabatlarga oiddir. Bu maqollar bolalar, ota-onalar, ustoz-shogird, do'stlar va oila a'zolari orasidagi munosabatlarni ifodalaydi. Ustozlarning o'z shogirdlariga nasihatlar berishi, yoshlar esa o'qish, yaxshi xulq egasi bo'lishi va mehnat qilishi orqali kelajakda komil inson bo'lishi haqidadir.

7. Adabiyot va falsafa: o'zbek xalqining maqollari adabiyot va falsafiy tasavvurlar bilan juda boy. Bu borada yozuvchilarimiz va shoirlarimizning hissasi beqiyosdi. Chunki ularning asarlari orqali maqollar, o'gitlar va iboralar kelajak avlodga yetib boradi. O'zbek adabiyotida ko'plab klassik asarlar, ruboiylar, qo'shiqlar va hikoyalar maqollar orqali ifoda topgan.

8. Do'stlar va insonparvarlik: O'zbek xalqining maqollari do'stlar va insonparvarlikga oid. Ularda mehribonlik, hurmat, barqarorlik, do'stlarning o'zaro yordami va qadriyati ifodalangan. Bu maqollar O'zbek xalqining o'zaro muhabbat va hurmatga qaratilgan qarindoshlikni qadrlashga qaratilgan.

9. Tarixiy tashkilotlar va shaxslar: Tarixiy tashkilotlar, davlat arboblari, ilm olimlari, dindorlar va tarixiy shaxslar o'zbek xalqining maqollarining paydo bo'lishiga ta'sir qilgan. Ularga bog'liq maqollar tarixiy voqealarni, o'zbek xalqining tarixiy va madaniy qadriyatini ifodalaydi.

O'zbek xalq maqollari, o'zbek adabiyotining eng qadimgi asarlaridan biridir. Ular, o'zbek xalqining milliy va madaniy qadriyatlarini ifodalaydigan, ustunliklarini, tajribalarini va xayollarni o'z ichiga olgan maqollar hisoblanadi. Bu maqollar, o'zbek xalqining tarixiy, ijtimoiy va madaniy hayotini oydinlatish, o'zaro aloqalar va hamkorlikni rivojlantirish, adabiyot va madaniyatni o'zlashtirish maqsadida tasvir etilgan.

Maqollar xalq ijodiyotining bebaho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi (5;2-bet). Bu maqollarni o'rganish orqali, o'zbek adabiyotining tarixi va tarixiy tahlili kengayib boradi. ijtimoiy, adabiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlarga ham ta'sir qilgan. Adabiy hayotdagi o'zgarishlarga ta'siri esa, o'zbek adabiyotining janrlariga, shakllariga, mavzulariga va xususiyatlarga, adabiy uslub va texnikalariga, yaratuvchi va qo'llanmalarining o'zgarishi va boshqa tahlillarga ta'sir qiladi.

Shuningdek, o'zbek xalq maqollarining adabiyot, madaniyat, tarix va o'zgarishlariga aloqadorligi, ularning o'zbek adabiyotining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Xalq maqollari poetikasida ko'zga tashlanuvchi tovushlar uyg'unligi (alliteratsiya, assonans, anafora), ma'no ko'chish turlari (sinekdoxa, metafora, metonimiya, kinoya, majoz), badiiy-stilistik vositalar (takror, qisqartirish) kabilarning qo'llanishi ularning badiiy-estetik ta'sirchanlik vazifasini yanada oshiradi, kishilar xotirada oson saqlanib qolishiga yordam beradi(6;4). Ular, o'zbek adabiyotining tarixiy yodgorligini saqlab turish, o'zbek til va adabiyotidagi so'zlashuvni o'rgatish, milliy va madaniy qadriyatlarimizni asrash, o'zaro hamkorlikni rivojlantirtirish, o'zbek adabiyotidagi janrlar va uslublarni shakllantirish va o'zlashtirish uchun muhim manba sifatida xizmat qilgan. Ularning ijtimoiy, adabiy va madaniy hayotning turli sohalaridagi o'zgarishlarga ta'siri bilan, o'zbek adabiyoti rivojlanishi va o'ziga xosliklarni saqlab olishi odatiy.

Maqollar o'zbek xalqining tajribalari, odatlari, adabiyotiy va falsafiy tasavvurlari bilan bog'liq bo'lib, uning dunyoqarash va qadriyatini ifodalaydi. Bu maqollar o'zbek adabiyoti, folklori va madaniyatining asosiy qismidir. Bu bosqichlar o'zbek xalqining fikr va hissiyotining turli aspektlarini ifodalaydi. Ularning yaratilishi va o'zgarishi tarixiy va madaniy yetakchi o'rinlarga, xalqning ma'naviyatiga va o'zining jamiyatga, milliylikka oid qadriyatlariga bog'liqdir. O'zbek xalq maqollari milliy identifikatsiyani ta'minlash, tarixiy va madaniy bilimlarni oshirish, ijtimoiy qadriyatlarni ko'rsatish va o'zaro munosabatlarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy-ma'naviy xazinasini hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurahimova D, (2023) O'zbek xalq maqollarining lingvopoetik tahlili, (190-194bet) Scientific Progress Volume
2. Boltayevna, Ikromova Lola. "EXPRESSION OF SEASONS IN FRENCH PROVERBS AND SAYINGS AND THEIR EQUIVALENTS IN UZBEK." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 458-461.
3. Boltayevna, Ikromova Lola. "USE OF PROVERBS IN THE EDUCATIONAL PROCESS." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 462-466.
4. Boltayevna, Ikromova Lola. "CULTURAL SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS AND SAYINGS." INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS. Vol. 1. No. 1. 2024
5. Jo'rayeva M.M. (2016) Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. – T., [8, b.47].
6. Ikromova, Lola. "O'zbek xalq maqollarining paydo bo'lishi." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
7. Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. (2005). O'zbek xalq maqollari. (2-bet) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korpaniyasi Bosh tahririyati.
8. Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. (2005). O'zbek xalq maqollari (4-bet) «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korpaniyasi Bosh tahririyati.
9. Madayev, O. (2010) O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent «Mumtoz so'z» (17-bet)

10. M.J. Salimova, Ja.A. Yakubov. (2021). "Fransuz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari" (2-bet) Вестник магистратуры. № 1-1(112) ISSN 2223-4047

11.Nasimova, Fotima. "Fransuz va o'zbek tillarida intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 42.42 (2023).

FRANSUZ TILI FRAZELOGIYASI SOHASIDA IFLOSLANTIRUVCHI BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI XUSUSIYATLARI

Elmurodov Shohrux Alijon o'g'li

Samarqand davlat chet tillar unistutining

II-kurs magistranti Lingvistika (Fransuz tili)

E-mail: elmurodovshohrux580@gmail.com

Ilmiy rahbar: Safarova U. A. DCs (Dotsent)

Samarqand davlat chet tillar unistuti fransuz tili va adabiyoti kafedrası.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fransuzcha frazeologik birliklar etimologiyasi xususidagi ma'noviy mutanosiblik holati yoritilgan bo'lib, etimologiya hamda frazeologiyani bir -biriga bog'liq holda o'rganishning muhimligi, hamda bu tilda keng qo'llaniladigan qiziqarli iboralar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: etimologiya, frazeologiya, Cest un coq de paroisse, lug'at, tarixiy iboralar, tarjima, tarjimon.

Abstract: In this article, the situation of the semantic correlation of the etymology of French phraseological units is highlighted, the importance of studying etymology and phraseology in relation to each other, as well as interesting expressions that are widely used in this language are discussed.

Key words: etymology, phraseology, Cest un coq de paroisse, dictionary, historical phrases, translation, translator

Features of the use of polluting units in the field of French phraseology

KIRISH

O'zbekistonni dunyoga tanitishda, albatta, xorijiy tillarni bilishning o'rni beqiyosdir. Bugungi kunda chet el adabiyoti, madaniyati, san'atini o'rganishimizda tarjimon yozuvchilarimizning o'rni beqiyosdir. Badiiy matn tarjimasida kuzatilgan asosiy muammolardan biri frazeologizmlar tarjimasidir. Ushbu holdan kelib chiqib, frazeologik birlashma va uning tarjima-dagi ifodasini o'rganish tarjimon oldidagi muammolarni biroz bo'lsada, yengillashtiradi.

Fransuzcha frazeologik birliklarning etimologiyasi xususidagi ishlar bir necha asrlardan buyon fransuz tilshunoslari diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Etimologik izlanishlar, avvalo, fransuzcha frazeologik birliklarni nazariy jihatdan